



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.  
B.INING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “7” dekabr 01039-edo - son

**2023-yil “Tibbiyot mohirlari” tibbiy-amaliy ko‘nikmalari  
III Xalqaro olimpiadasini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli farmoni va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy -texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. “Tibbiyot mohirlari” tibbiy-amaliy ko‘nikmalari III Xalqaro olimpiadasi (keyingi o‘rinlarda – III Xalqaro olimpiada) 2023-yilning 19-dekabrda Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda-TTA) o‘tkazilsin.

2. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilmiy - fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida III Xalqaro olimpiadasi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) va Koreya xalqaro sog‘liqni saqlash jamg‘armasi (KOFIH) bilan hamkorlikda o‘tkazilsin.

3. III Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun mas’ul etib Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova va Klinik modellashtirish kafedrasini mudiri D.A. Parpibaeva belgilansin.

4. Xalqaro fan olimpiadasi TTA rektorining 2023-yil 6-oktabrdagi 321-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tibbiyot mohirlari” tibbiy-amaliy ko‘nikmalari Xalqaro olimpiadasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga (keyingi o‘rinlarda- Nizom) muvofiq o‘tkazilsin.

**5. Quyidagilar:**

“Tibbiyot mohirlari” tibbiy-amaliy ko‘nikmalari III Xalqaro olimpiada dasturi 1-ilovaga muvofiq, III Xalqaro olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq, Xalqaro olimpiada ishchi gurux a‘zolari tarkibi 3-ilovaga muvofiq, III Xalqaro olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha mas’ul komissiyaga tashkiliy ko‘mak ko‘rsatish bo‘yicha jalb qilinayotgan TTA talabalarini ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilari va bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar mazkur buyruq bilan tanishtirilsin;

III Xalqaro olimpiadada ishtirok etadigan talabalar saralanib, TTA jamoasi shakllantirilsin va TTA talabalarining III Xalqaro olimpiadada ishtirok etishi ta'minlansin;

2023-yil dekabr oyida o'tkaziladigan III Xalqaro olimpiadada ishtirok etadigan talabalarga olimpiada o'tkazilish sanasi uchun o'rtacha reyting ballari qo'yib berilishi ta'minlansin;

mazkur buyruq ilovalarida keltirilgan ro'yxatlar bo'yicha III Xalqaro olimpiadada ishtirok etishi ko'rsatilgan TTA xodimlari va talabalarining ishtiroki ta'minlansin.

**7.** Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov tomonidan III Xalqaro olimpiadasini ochilish va taqdirlash marosimlarini, hamda olimpiada bosqichlarini o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlab borilsin.

**8.** Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I. Do'stmurodov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.Y.G'aipov va Bosh buxgalter B.I.Alijanovalar III Xalqaro olimpiada bosqichlarini xolis, shaffof va sifatli o'tkazish uchun III Xalqaro olimpiada ishtirokchilariga diplom va sertifikatlar tayyorlash va esdalik sovg'alar xarid qilish, shuningdek III Xalqaro olimpiada qatnashish uchun xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning rasmiy delegatlari uchun esdalik sovg'alarini xaridi bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-harajatlar TTAning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

**9.** Matbuot kotibi G.T.Mirzayeva tomonidan iqtidorli talabalar bilan ishlashning muhim tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olib, III Xalqaro olimpiadasida g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritilsin.

**10.** Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovaga:

III Xalqaro olimpiada yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar 5 (besh) kun muddat ichida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot topshirilsin;

III Xalqaro olimpiada yakunlanganidan so'ng unda g'olib bo'lgan TTAning talabalari Nizomda belgilangan tartib va miqdorda rag'batlantirish to'g'risida buyruq loyihasi TTA rektoriga taqdim etilishi ta'minlansin.

**11.** Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**F.Abdumalikova**

**Bo'lim boshlig'i**

**Kelishildi:**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor**

**S.Dustmuradov**

**Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor**

**O.G'aipov**

**Bo'lim boshlig'i**

**B.Alijonova**

**Bosh buxgalter**

**A.Musaxonov**

**Markaz rahbari**

**S.Yusupova**

**Bo'lim boshlig'i**

**F.Azizova**

**Kafedra mudiri**

**M.Jafarov**

**Bo'lim boshlig'i**

**G.Mirzaeva**

**Matbuot hizmati bosh mutahassisi**